

JISMONIY SHAXSLARGA “ONLAYN-AVTOKREDIT” AJRATISH OFERTA SHARTNOMASI

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat “Xalq banki” (bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiladi) tomonidan jismoniy shaxslarga (bundan buyon shartnoma matnida “Qarz oluvchi” deb yuritiladi) bank mobil ilovasi orqali masofadan turib avtokredit ajratish to‘g‘risidagi ommaviy elektron oferta shartnomasini (bundan buyon shartnoma matnida “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzishni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq taklif qiladi.

Qarz oluvchi ushbu shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi, mijozning mazkur shartnomada ko‘rsatilgan tartibda va hajmda bank bilan shartnomani tuzishga roziligini bildiradi.

Mazkur oferta **va uning ilovalari** “xazna” mobil ilovasida joylashtiriladi.

I. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Onlayn-avtokredit (keyingi o‘rinlarda avtokredit) – muddatlilik, to‘lovlilik, qaytarishlik va ta‘minlanganlik shartlari asosida, milliy valyutada, rasmiy daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga “xazna” mobil ilovasi orqali, ushbu shartnomada belgilangan shartlar asosida kredit ajratilishi tushuniladi;

1.2. Qarz oluvchi – “xazna” mobil ilovasi orqali “Onlayn-avtokredit” xizmatidan foydalanishga buyurtma bergan jismoniy shaxs;

1.3. Birgalikda qarz oluvchi – Qarz oluvchining avtokredit asosiy summasi va kredit bo‘yicha foizlarning har oydagi to‘lovlarida qatnashadigan, shuningdek avtokredit buyicha solidar javob beradigan jismoniy shaxs;

1.4. “xazna” mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda mobil ilova) – Bank tomonidan ko‘rsatiladigan ma‘lum xizmatlardan masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi, mobil qurilmalarda ishlash uchun moslashgan dasturiy ta‘minot;

1.5. Oferta – Mobil ilova orqali bank mijozlariga e‘lon qilingan, yetarli darajada aniq bo‘lgan va taklifni kiritgan bank va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif;

1.6. Boshlang‘ich badal — sotib olinadigan avtomashina qiymatining avtokredit olish uchun qarz oluvchi tomonidan o‘z mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan belgilangan me‘yorlarda shakllantiriladigan qismi;

1.7. Aksept – Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining avtokredit bo‘yicha bank ofertasini qabul qilinganligi to‘g‘risidagi javobi;

1.8. Ssuda hisobvarag‘i – Qarz oluvchiga ajratilgan avtokredit aks ettiriluvchi Bank tomonidan hisobvaraqlar rejasiga muvofiq ochiladigan alohida shaxsiy hisobvaraq;

II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Bank tomonidan Qarz oluvchiga: avtotransport vositasi sotib olish uchun kredit mablag‘larini ajratish, Qarz oluvchi esa olingan avtokredit mablag‘larini belgilangan muddatda qaytarish va avtokreditdan foydalanganligi uchun foizlar to‘lash majburiyatini olishi ushbu Shartnomaning mazmuni bo‘lib hisoblanadi.

III. SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI VA JOYI

3.1. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan shartnomani akseptlash “xazna” mobil ilovasi orqali masofadan turib avtokredit olish imkonini beruvchi amaliyotlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

3.2. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan shartnoma akseptlangan va kredit mablag‘lari dillerning banklardagi hisobraqamiga o‘tkazib berilgan paytdan boshlab bank va mijoz o‘rtasidagi shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

3.3. Shartnoma mijozga avtokredit ajratgan bank filiali joylashgan hududda tuzilgan hisoblanadi.

IV. AVTOKREDIT AJRATISH TARTIBI VA SHARTLARI

4.1. Avtokredit shartnoma shartlariga binoan, Qarz oluvchi tomonidan mobil ilova orqali elektron ravishda rasmiylashtirilgan buyurtmanomada ko‘rsatilgan miqdorda va muddatga, mobil ilovada mijoz buyurtmanomasiga asosan ajratiladi.

4.2. Bank tomonidan Qarz oluvchi ajratilgan avtokreditning hisobi mijozga ochilgan ssuda hisobvarag‘ida yuritiladi.

4.3. Asosiy kredit summasi hamda kreditga hisoblangan foizlarning qaytarilishi to‘lov jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Avtokredit Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi shartnomani akseptlagan vaqtdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan, bank tomonidan dillerning banklardagi hisobraqamiga naqdsiz pul o‘tkazish amaliyoti orqali ajratiladi.

4.5. Foizlarni to‘lash muddati: har oyning 5 sanasida;

4.6. Avtokredit quyidagi shartlarda ajratiladi:

- Miqdori _____ so‘m;
- Muddati 60 oygacha;
- Yillik foizi 23 (yigirma uch) foiz.

4.7. Kreditning maqsadi va ob‘ekti: avtomashina sotib olish uchun.

4.8. Avtomashina sotib olish uchun dastlab qabul qilingan 35 (o‘ttiz besh) foizdan (*Uzautomotors avtomobillari uchun 25 foiz*) kam bo‘lmagan boshlang‘ich badal summasi, oldi-sotdi shartnomaga asosan dillerning hisob rakamiga o‘tkazib beriladi.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bankning majburiyatlari:

5.1.1. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining huquq va majburiyatlari to‘g‘risida, shu jumladan mikromoliyaviy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida mijozga ishonchli hamda to‘liq axborotni ma‘lum qilishi;

5.1.2. Qarz oluvchiga mazkur shartnomada ko‘rsatilgan miqdorda va shartlarda ushbu shartnoma kuchga kirgandan so‘ng, uch bank ish kuni ichida kredit ajratish;

5.1.3. Olingan kreditni hisoblash uchun Qarz oluvchiga ssuda hisob raqamini ochish;

5.1.4. Qarz oluvchini Bank tomonidan kreditni muddatidan oldin undirish faktlari va sabablari haqida xabardor qilish;

5.1.5. Bank zimmasiga qonun hujjatlariga yoki shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

5.2. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining majburiyatlari:

5.2.1. Mikromoliyaviy xizmatdan foydalanishdan oldin ushbu oferta shartnomasi shartlarini bilan tanishib chiqish;

5.2.2. Kredit hisobiga sotib olingan avtomashinani tegishli tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan so‘ng 10 kun muddat ichida garovga taqdim qilish.

Kredit va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishi hamda to‘lanishini ta‘minlash.

5.2.3. Kreditdan faqat mazkur shartnomada ko‘rsatib o‘tilgan maqsadlarda foydalanish.

5.2.4. Kreditdan foydalanish jarayonida kreditlashning asosiy tamoyillari: muddatlilik, qaytarishlilik, maqsadlilik, to'lovlilik va ta'minlanganlik talablariga rioya qilish.

5.2.5. Bank xodimlariga maqsadli tekshirishlar (kreditdan maqsadli foydalanish va tovarning butligi masalalari bo'yicha) o'tkazishlari uchun ruxsat berish. Maqsadli tekshirishlar muddati Qarz oluvchining roziligisiz Bank tomonidan belgilanadi.

5.2.6. Mazkur shartnoma kuchda bo'lgan davrda va Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar bo'lsa, Bankning oldindan roziligini olmasdan, Qarz oluvchi quyidagi harakatlardan birortasini amalga oshirmasligi zarur:

-kredit hisobiga sotib olingan avtotransport vositasini sotish yoki boshqa yo'llar bilan begonalashtirish, begona shaxslarga berish, ijaraga berish, garovga qo'yish va uchinchi shaxslar foydasiga o'z mulkiga nisbatan boshqa imtiyozli huquqlarni vujudga keltirish;

5.2.7. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining pasport ma'lumotlari, ish joyi, yashash manzili, familiyasi, ismi o'zgarganda 5 kun muddat ichida Bankni xabardor qilish.

5.2.8. Qarz oluvchi o'zining va Birgalikda qarz oluvchilarning bankdagi barcha bank hisobvaraqlari (plastik karta, omonat va boshqa) to'g'risidagi ma'lumotlarni bankka taqdim etish;

5.2.9. Xalq bankining "Contact center" operatorlari qo'ng'iroqlariga hamda SMS xabarlarini ijobiy qabul qilish;

5.2.10. Telefon raqami o'zgargan hollarda, zudlik bilan Bankni xabardor qilish. Bunda, telefon raqami o'zgargan kundan boshlab ikki ish kunida Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Bankni xabardor qilishi majburiyatini oladi.

5.2.11. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunlariga hamda Xalq banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Axborotni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga rozilik shartlari"ga muvofiq o'zlariga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga va ulardan foydalanishga ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq roziligini taqdim etish;

5.2.12. Ushbu kredit shartnomasi bo'yicha asosiy ta'minotdan tashqari boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarning yozma kafilliklarini (kafillik shartnomasi) taqdim etish;

5.2.13. Bank tomonidan yuboriladigan xabarlar, jumladan mobil ilovadagi bildirishnomalar, SMS va PUSH-xabarlarini diqqat bilan o'rganib chiqishi shart;

5.2.14. Bank tomonidan foydalanuvchiga firibgarlik belgilari aniqlanganligi to'g'risida ma'lumot berilgandan keyin har qanday to'lov amaliyotlarini tasdiqlashda ehtiyotkor bo'lishi;

5.2.15. Qurilmasi yo'qolganligi yoki uchinchi shaxslar tomonidan qurilmani boshqarishga nazorat o'rnatilganligini aniqlagan paytdan boshlab zudlik bilan biroq 1 kundan kechiktirmay Bankni xabardor qilishi;

5.2.16. O'z roziligisiz amalga oshirilgan operatsiya faktini aniqlagan paytdan boshlab 1 kun ichida bu haqda Bankni xabardor qilishi;

5.2.17. Bankka o'zining aloqa ma'lumotlarini taqdim etishi shart, ushbu ma'lumotlar Bankning foydalanuvchi bilan bog'lanishi uchun zarurligi, agar ushbu ma'lumotlar o'zgarsa, o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 3 kun ichida bu haqda Bankka xabar berishi lozim;

5.2.18. Bankning so'roviga ko'ra mijoz operatsiyani o'zi mustaqil ravishda amalga oshirganligi yoki uni mijozning topshirig'i yoxud ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs bajarganligi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi shart. Shuningdek, mijoz firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etishi lozim.

5.2.19. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

5.3. Bankning huquqlari:

5.3.1. Qarz oluvchi to'lovga layoqatsiz deb topilganda, kreditni qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganda, kreditdan maqsadsiz foydalanganda (*kredit hisobiga sotib olingan avtotarnsport vositasini garovga qo'ymasdan begonalashtirish kabi holatlar*), shartnoma imzolangandan keyin taqdim etilgan kreditni qaytarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarning

haqqoniy emasligi aniqlanganda hamda Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganidan so'ng Qarz oluvchi tomonidan kreditdan bir oydan ko'p muddat davomida foydalanilmaganda (to'lov hujjatlarini taqdim etmaslik) ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortish.

5.3.2. Kreditlash jarayonida ajratilgan kreditga tegishli bo'lgan holatlarni (kreditdan maqsadli foydalanish, kreditning ta'minlanganligi, kreditga layoqatliligi va boshqalar) tahlil qilish.

5.3.3. Bevosita Qarz oluvchi joylashgan yerda maqsadli tekshirishlarni amalga oshirish.

5.3.4. Quyidagi hollarda Qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to'xtatish va foizlarni hamda kredit bo'yicha asosiy qarzni muddatidan oldin, jumladan undiruvni kredit ta'minotiga qaratish orqali undirish:

-kreditdan maqsadsiz foydalanilganda (*kredit hisobiga sotib olingan avtotransport vositasini sotish yoki boshqa yo'llar bilan begonalashtirish, begona shaxslarga berish, ijaraga berish, garovga qo'yish va uchinchi shaxslar foydasiga o'z mulkiga nisbatan boshqa imtiyozli huquqlarni vujudga keltirish*);

-Qarz oluvchi shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to'lov jadvaliga rioya etmaganligi oqibatida muddati o'tgan qarzdorligi yuzaga kelgan hollarda;

-mazkur shartnomaga asosan Bank tomonidan monitoring o'tkazilishidan bo'yin tovlaganda (bosh tortganda);

-Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan Bankka kredit hujjatlarini rasmiylashtirilayotganda taqdim etilgan ma'lumotlar haqqoniy emasligi aniqlanganda;

-ajratilgan kreditning qaytarilishi turli sabablarga ko'ra ta'minlanmagan bo'lib qolgan hollarda, shuningdek kredit qaytarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlar bajarilmaganda;

Bunday hollarda Bank oldindan 15 kundan ko'p bo'lmagan muddat ichida Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchini ogohlantiradi, ammo Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining Bank tomonidan ogohlantirilmaganligi Bankning bundan buyon kreditlashni to'xtatish va foizlarni hamda kredit bo'yicha asosiy qarzni muddatidan oldin undirishga bo'lgan huquqiga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi.

5.3.5. Qarz oluvchining kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni Banklararo kredit byurosiga taqdim etish.

5.3.6. Bank ajratilgan kreditning muddati kelgan qismini, shu jumladan foiz va neustoykalarini Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining banklarda ochilgan barcha plastik karta hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda yechib oladi.

Bunday bank operatsiyasi mijozni oldindan ogohlantirishsiz, to'lov muddati kelgan sanada va undan keyingi har qanday sanada amalga oshirilishi mumkin hamda amalga oshirilgan bu turdagi bank operatsiyasi haqida Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga alohida xabarnoma yuborilmaydi.

5.3.7. Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga to'lov jadvaliga muvofiq to'lovlar yaqinlashayotganligi haqida 10 kun oldin SMS xabarlar yuborish;

5.3.8. Qarz oluvchi tomonidan kredit va unga hisoblangan foizlar mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanmagan hollarda, Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS eslatmalar yuborish. Shuningdek, Qarz oluvchi bilan shaxsan muloqot olib borgan holda to'lovlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi lozimligi haqida, hamda aks holda Qarz oluvchiga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi mumkinligi to'g'risida tushuntirish ishlarini amalga oshirish, shuningdek shu mazmunda SMS xabarlar yuborish.

5.3.9. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va ulardan foydalanish huquqlariga ega.

5.3.10. Ajratilgan kreditning maqsadli ishlatilishi monitoringini taqdim etilgan oldi-sotdi shartnomalarida belgilangan, kredit mablag'i hisobiga mahsulotlarni yetkazib berish va/yoki

xizmatlar (ish) ko'rsatishning oxirgi muddatlari tugaganidan so'ng, joyiga chiqqan holda amalga oshirish;

5.3.11. Mazkur shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan hollarda, Bank o'zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan tegishli pul mablag'larini (asosiy kredit, foiz, penya) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarz oluvchi, Birgalikda qarz oluvchi hamda Kafillarning barcha hisobvaraqlari (plastik karta, omonat va b.)dan akseptsiz tartibda ko'chirib (undirib) olish huquqiga ega;

5.3.12. Bank qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.4. Qarz oluvchining huquqlari:

5.4.1. Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalari bilan tanishib chiqish;

5.4.2. O'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot olish;

5.4.3. Shartnoma shartlarining shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishini talab qilish;

5.4.4. Oldindan (3 bank ish kuni davomida) Bankni xabardor qilib, kredit olishdan to'liq yoki qisman voz kechish.

5.4.5. Kredit qarzdorligini hech qanday jarimalarsiz muddatidan oldin qaytarish.

5.4.6. Kreditlash va hisob-kitoblar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida Bankdan ma'lumot olish. Shuningdek, Xalq bankining "Contact centri" orqali bankdan olingan kredit yuzasidan tegishli ma'lumotlarni olish.

VI. HISOB-KITOB-LAR TARTIBI VA SHARTNOMA BAHOSI

6.1. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida Bank kredit summasini Qarz oluvchining ssuda hisob raqamidan pul o'tkazish yo'li bilan iste'mol tovari sotib olish uchun to'laydi.

6.2. Qarz oluvchi berilgan kredit uchun foizlarni Bankka mazkur shartnomada belgilangan muddatda va miqdorda Bank amalga oshirgan hisob-kitob asosida to'laydi.

6.3. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar har kuni Bank tomonidan hisoblab boriladi.

6.4. Qarz oluvchi shartnoma shartlariga asosan ajratilgan kreditni hamda u bo'yicha hisoblangan foizlarni naqd va naqdsiz ko'rinishida pul to'lash yo'li bilan amalga oshiradi. Avval foizlar bo'yicha hisoblangan qarzdorlik, keyin kredit bo'yicha asosiy qarz qaytariladi (qoplanadi).

6.5. Mazkur Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan hollarda, Bank o'zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan tegishli pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarz oluvchining, Birgalikda qarz oluvchining va Kafillarning hisobvarag'i (plastik karta, omonat va b.)dan akseptsiz tartibda (roziligisiz) ko'chirib (undirib) oladi, shuningdek, qarzdorliklar Notariusning ijro xati asosida qoplanishi mumkin. Bank bu haqda Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS xabarnoma yuboradi.

6.6. Qarz oluvchining krediti bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun mablag'lar yetarli bo'lmagan hollarda, qarzdorlik quyidagi navbatda qoplanadi:

- birinchi navbatda asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

- ikkinchi navbatda joriy davr uchun xisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

- uchinchi navbatda neustoyka (jarima, penya) va undan keyingi navbatda Qarz oluvchining qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

VII. KREDIT QAYTARILISHINING TA'MINLANISHI

7.1. Mazkur shartnoma asosida ajratilayotgan kreditning ta'minoti sifatida, avtomashina garovga olingunga qadar sug'urta polisi, kredit mablag'lari hisobiga sotib olinayotgan avtomashina garovi taqdim qilinadi. Bunda avtomashina narxi o'zaro kelishuv dalolatnomasiga asosan _____ (_____)so'mga garovga olish to'g'risidagi garov shartnomasi bilan ta'minlanadi.

7.2. Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyati (kredit ajratish) kredit qaytarilishining ta'minlanishini belgilovchi hujjatlar belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilgandan va u Bank tomonidan olingandan so'ng kuchga kiradi.

VIII. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI

8.1. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kredit), Qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,2 baravar oshirilgan miqdorida yuqori foiz to'laydi.

Asosiy qarz va foizlarni belgilangan muddatlarda to'lamaganligi va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foiz miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

8.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda kredit ajratilmaganda, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foiz miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 10 foizdan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

9.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari biror noqonuniy ustunlikka yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun biror bir shaxsga, uning harakatlari yoki qaroriga ta'sir o'tkazish maqsadida, bevosita yoki bilvosita biror bir pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydi, to'lashni taklif etmaydi va bunday to'lovni amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

9.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari amaldagi qonunchilik bilan pora berish/pora olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish kabi tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek amaldagi qonunchilikka doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

9.3. Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini rag'batlantirishdan, shu jumladan xodimlarga pul mablag'lari, sovg'alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo'llar orqali ularni ma'lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo'lgan va rag'batlantiruvchiMazkur hujjat elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. www.xb.uz vebsaytiga o'ting va elektron hujjat to'g'risida ma'lumotlarni oling.tomonning foydasiga xodimlar biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

9.4. Tomonlarda har qanday korrupsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan shubha tug'ilganda, tegishli tomon yozma ravishda yoki aloqa kanallari orqali og'zaki tarzda boshqa tomonni xabardor qiladi. Shuningdek, ushbu tomondan ma'lum muddat ichida tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor etishini talab qilishi shart. Tomonning bu talabi ikkinchi tomon tarafidan bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon shartnomani bir tomonlama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

9.5. Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar o'tkazish orqali hal qilishga harakat qiladilar.

10.2. O'zaro kelishuvga erishilmagan nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan sud tartibida hal etiladi.

XI. FORS-MAJOR

11.1. Taraflar ushbu shartnoma imzolangandan keyin majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, taraflar oldindan ko'ra olishmagan, tegishli choralar bilan bartaraf etishi mumkin bo'lmagan favqulodda tUSDagi hodisalar natijasida vujudga kelgan, yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlarini (zilzila, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar) hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

11.2. Yengib bo'lmaydigan kuch holatlariga asoslanadigan Taraf boshqa Tarafni bunday holatlar boshlanganligi to'g'risida yozma ravishda zudlik bilan xabardor qilishi shart va shu bilan birga istalgan tarafning talabiga ko'ra holatlarning boshlanishi faktini tasdiqlovchi, tegishli tashkilot tomonidan berilgan hujjat taqdim etilishi kerak.

XII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

12.1. Ushbu shartnoma Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan "xazna" ilovasi orqali tasdiqlangan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi va yuridik kuchga kiradi.

12.2. Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

12.3. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlarning kelishuviga muvofiq yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

12.4. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi bankning yozma roziligisiz mazkur shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.

12.5. Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni shartnoma kuchida bo'lgan davrda vujudga kelgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XIII. YAKUNIY QOIDALAR

13.1. Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalari asosida hal etiladi.

13.2. Xech bir taraf ushbu shartnomaning qog'oz ko'rinishini saqlashga va imzolashga majbur emas, Bank tomonidan "xazna" mobil ilovasiga joylashtirilgan ushbu shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan harakatlar mijoz tomonidan bajarilgan paytdagi tahriri qonuniy kuchga ega bo'ladi.

Bank

AT «Xalq banki»

Manzil: Toshket shaxari, Chilonzor tumani,

Qatortol ko'chasi, 46-uy.

Tel: (71) 210-20-02

E-mail info@xb.uz

X/r _____

MFO: 01125

STIR: 207215726

QARZ OLUVCHI

Pasport ma'lumotlari:

Seriya:

Berilgan:

Tel.raqami:

_____ (imzo)